

SUN'IY INTELLEKT VA ROBOTLASHTIRISH: JINOYAT QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI



Otajonov Abrorjon Anvarovich

Toshkent davlat yuridik universitetining Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt tushunchasiga oid nazariy qarashlar tahlil qilingan, uning ta'rifi shakllantirilgan, u bilan bog'liq holda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilash hamda kelgusida jinoyat qonuni normalarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, jinoyat subyekti, robot, javobgarlik, sun'iy intellekt javobgarligi, sun'iy intellektdan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlar, kiberjinoyat.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И РОБОТИЗАЦИЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УГОЛОВНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические взгляды на понятие искусственного интеллекта, сформулировано его определение, разработаны предложения, направленные на установление уголовной ответственности за связанные с ним общественно опасные деяния и дальнейшее совершенствование норм уголовного законодательства.

Ключевые слова: искусственный интеллект, субъект преступления, робот, ответственность, ответственность искусственного интеллекта, преступления с применением искусственного интеллекта, киберпреступление.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ROBOTIZATION: PROSPECTS FOR IMPROVING CRIMINAL LEGISLATION

Abstract. In this article analyzes theoretical perspectives on the concept of artificial intelligence, formulates its definition, and develops proposals aimed at establishing criminal liability for related socially dangerous acts and further improving criminal legislation norms.

Keywords: artificial intelligence, subject of crime, robot, liability, liability of artificial intelligence, crimes with the use of artificial intelligence, cybercrime.

Im-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirmoqda. O'zbekistonda ham ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy

intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan ishlar jadal ravishda olib borilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda 2030-yilga qadar sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish, sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga va bu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish, yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish, Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O'zbekistonni birinchi 50 talik davlatlar qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu bois mamlakatimizda kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalari bank, moliya, soliq, bojxona, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, transport, energetika sohalarida faol joriy etiladi.

Ma'lumki, yaqin-yaqingacha kundalik hayotimizda va ishlab chiqarishda robotlar, nobiologik neyron tarmoqlari va sun'iy intellektdan foydalanishga erishib bo'lmaydigan hodisa sifatida qaralar edi. Biroq, inson faoliyatining yildan yilga axborotlashuvi va avtomatlashuvi bu boradagi tasavvurlarni haqiqatga aylantirmoqda. Shu bilan birga, fan-texnika taraqqiyotining mazkur jarayonlari insoniyatga nafaqat foyda, balki muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkinligini alohida ta'kidlash kerak. Chunonchi, guvohi bo'layotganimizdek, so'nggi paytlarda sun'iy intellekt qarorlarining noadekvatligi va xavfli oqibatlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari va Internet tarmoqlarida tobora ko'proq yoritilib, bu bilan bog'liq bo'lgan jamoatchilik munozaralari shiddatli tus olmoqda. Bu esa, aybdorlarni jazolash va boshqa masalalar yuzasidan qator savollarni ham keltirib chiqarmoqda. Masalan, sun'iy intellekt inson omilisiz mustaqil qarorlar qabul qila oladimi? Sun'iy intellekt tomonidan sodir etilgan qonunga xilof qilmishlar va ularning oqibatlar uchun kim javobgar bo'lishi kerak? Sun'iy intellekt qilmishlari tufayli jinoiy oqibat ro'y berganda, uning o'zini jinoyat subyekti sifatida jazolash kerakmi yoki u faqat jinoyat predmeti yoki vositasi maqomida qoladimi? Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ixtirolarga nisbatan mualliflik huquqi kimga tegishli bo'ladi?

Albatta, bunday savollarni davom ettirish mumkin. Shu sababli ham, dastavval sun'iy intellektning ijtimoiy xavfli xususiyatlarini baholab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Binobarin, sun'iy intellekt ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish doirasida u tomondan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik muammolari bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan sanaladi. Biroq, tan olishimiz kerakki, hozirda huquqiy jihatdan sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar yetarli darajada tartibga solinmagan, u bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik masalasi qonunan hal etilmagan. Shunga qaramay, mamlakatimizning jinoyatga oid huquqiy doktrinasida hozirgi kunda aynan sun'iy intellekt jinoiy javobgarligi muammolarini o'rganishga oid maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Milliy jinoyat qonunida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda yoki uning o'zi tomondan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat tarkiblari mavjud emas. Ammo, bu sun'iy intellektdan foydalanib jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyati yo'q ekanligini anglatmaydi, chunki mazkur holat jinoyat qonunida tan olingan jinoyatning yagona subyekti bo'lgan jismoniy shaxslarning faoliyati bilan bog'liq holda hal etiladi. Biroq, bu yerda asosiy muammo sun'iy intellektning inson aralashuvisiz mustaqil qaror qilishi natijasida kelib chiqadigan jinoiy oqibatlar uchun javobgarlik muammolarida hisoblanadi, chunki bu borada hozircha yagona to'xtamga kelinmagan.

Shubhasiz, texnologik taraqqiyot rivojlanishining hozirgi holatini hisobga olsak, yaqin kelajakda sun'iy intellekt imkoniyatlari sezilarli darajada oshishi va murakkablashishi mumkin. Xususan, bu borada professor N.Bostromning ta'kidlashicha, 2040-yilga kelib sun'iy intellekt va insonning fikrlash jarayonlaridagi o'xshashlik taxminan 50 foizga teng bo'ladi, 2075-yilda esa, ularning fikrlash jarayonlarini ajratib bo'lmaydi, o'xshashlik 95 foizga yetadi [3; 187-b.]. Ammo, hozirgi texnologik rivojlanish sur'atlari bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Shuning

uchun ham N.Bostrom va A. Sandberg yangi tadqiqotlarida ushbu prognoz ko'rsatgichlarini oldinga tomon o'zgartirishgan [23; 146-b.]. Albatta bunday taxminlar, sun'iy intellekt texnologiyalari taraqqiyotiga uzviy bog'liq holda sun'iy ong etikasi va javobgarlik muammolarini hal etishni taqozo etadi.

Sun'iy intellektning ijtimoiy xavflilik xususiyatini baholashda uning inson aralashuviziz mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyati mavjudligini e'tiborga olish muhim sanaladi. Vaholanki, texnika rivojlanishning hozirgi bosqichida sun'iy intellektidan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlarning yuz berishi bugun kun amaliyotidayoq uchramoqda. Masalan, firibgarlar sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, ovozingizni o'g'irlashi mumkin. Bunda ularga sizning ovozingizdan namuna olish uchun bir necha soniya yetarli bo'ladi. Keyin neyron tarmoq qolgan hamma ishni o'zi amalga oshiradi. Natija ovoz asl holatdan deyarli farq qilmaydi, firibgarlar sizning nomingizdan do'stlaringiz va oilangizni osongina aldashlari mumkin, shuningdek sun'iy intellekt taniqli insonlar, rahbarlarning ovozlari klonlashtirish orqali odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini obro'sizlantirmoqda, o'zgalar mulkini talon-toroj qilmoqda. Bundan nafaqat odamlar, balki turli korxonalar ham jabr ko'rmoqda.

Sun'iy intellektning ijtimoiy xavfliligi haqida yana gapiradigan bo'lsak, AQSHdagi tibbiy muassasalardan birida ro'y bergan voqeani eslash o'rinli. Bunda, tibbiyot muassasasiga yuqori harorat (selsiy bo'yicha 40 daraja), suvsizlanish va umumiy holsizlik holatida bo'lgan bir yoshli bola olib kelingan. Unga maxsus sun'iy intellekt yordamida gripp tashxisi qo'yilib, og'riq qoldiruvchi dorilar va suyuqlik yuborish usulida davolash muolajasi tayinlangan hamda tibbiyot xodimlari ushbu davolash tartibiga qat'iy rioya qilgan holda harakat qilishgan, biroq besh soat o'tib, bola vafot etgan. Murda tekshirilganda, sun'iy intellekt bolaga noto'g'ri tashxis qo'yganligi, uning o'limiga bakterial infeksiya sabab bo'lganligi aniqlangan [9; 84-b.].

Bundan tashqari, Massachusetts texnologiya universitetida 2016-yil boshida "Moral

Machine" ("Avtomobil uchun etika") tadqiqoti ishga tushirilib, uning doirasida maxsus veb-sayt yaratilgan. Unda haydovchisiz boshqariladigan avtomobil foydalanuvchisi uchun turli senariylar bilan vaziyatlar modellashtirilgan va favqulodda vaziyatlarda, masalan, fojiasi muqarrar bo'lgan vaziyatda birinchi navbatda kimning hayotini qurbon qilish mumkinligini tanlash imkoniyati berilgan. Bunday model-lashtirish muayyan tadqiqot natijalariga asoslangan bo'lib, tadqiqotda qatnashgan respondentlarning ko'p qismi bergan javoblarida bunday sharoitda hayvonlarni emas odamlarni, keksalarni emas yoshlarni qutqarish kerak [2; 142-b.] ligi ta'kidlangan. Shu sababli dasturlashtirish tartibiga ko'ra, favqulodda vaziyatlarda sun'iy intellekt mustaqil ravishda qaror qabul qilishi uchun unda irodaviy tanlov yuz beradi. Masalan, haydovchisiz boshqariladigan avtomobil yo'lni noto'g'ri joydan kesib o'tayotgan piyodani to'qnashuvdan qochishga uringani uchun, uni xavf manbasi deb baholab urib yuborgan [22].

Sun'iy intellektning ijtimoiy xavfli jihatlaridan yana biri – undan g'arazli yoki boshqa past niyatlarda yoxud aynan jinoyat sodir etish uchun maxsus yaratilishi mumkinligi hisoblanadi. Masalan, dronlardan narkokuryer sifatida yoki terrorchilik harakatlarini amalga oshirish uchun yoxud boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanish mumkin. Hozirgi kunda guvohi bo'layotganimizdek, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishda katta yutuqlarga erishilmoqda, xususan, Yandeks kompaniyasi ulardan allaqachon foydalanishni yo'lga qo'ygan. Davlat va tijorat tuzilmalari kunduzi ham, kechasi ham suratga olish imkoniyatiga ega bo'lgan videokamera, mikrofon, ovoz va tasvirlarni masofadan uzatish qurilmalaridan faol foydalanishmoqda. Bugun, sezdirmasdan binolarga kirib borish, suratga olish va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lgan sun'iy intellekt yordamida boshqariladigan robotlar ishlab chiqilgan. Chunonchi, professor R. Arkin o'z tadqiqotlarida sun'iy intellektidan jinoiy maqsadlarda foydalanish ehtimoli bo'lgan jiddiy axloqiy xavflar mavjudligi [23] to'g'risida fikrlarini bildirib o'tgan.

Demak, aytish mumkinki, sun'iy intellektdan nazoratsiz foydalanish yoki uning mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkoniyatlari insoniyat uchun xavfli oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, nazarimizda, sun'iy intellektning jinoiy-huquqiy ta'rifini ishlab chiqish, undan foydalangan holda yoki u tomondan mustaqil sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik va u bilan bog'liq qilmishlarni kvalifikatsiya qilish muammolarini aniqlash hamda jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil qilishni taqozo etadi.

Bugungi kunda yuridik adabiyotlarda "sun'iy intellekt" tushunchasi turlicha ta'riflanadi. Jumladan, S.S. Bozorov sun'iy intellektga muqobilik, qobiliyat va imkoniyatlarni hisobga olgan holda ta'rif beradi. Uning fikricha, sun'iy intellekt deganda, ishlab chiquvchisi tomonidan belgilanadigan imkoniyatlarga ega to'liq yoki qisman muqobil holda o'zini o'zi boshqaradigan kompyuter-apparat-dasturiy virtual yoki kiberfizik, shu jumladan bio-kibernetik tizim [4] tushuniladi. Sh.K. Matchanovning qayd etishicha, sunniy intellekt – bu kompyuter yoki axborot tizimiga insonning fikrlash faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi texnologiya [17; 4-b.]. Ammo, ushbu ta'riflar, nazarimizda, sun'iy intellekt mazmunini to'liq ochib bermaydi, chunki ularda muhokama qilinayotgan masalaning huquqiy jihatlariga e'tibor qaratilmagan.

Bundan tashqari, bu borada O.N. O'rinkulov va R.F. Xudoyberdiyevning yozishicha, sun'iy intellekt insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizim [29; 161-b.] hisoblanadi. B.Shumsutdinov, sun'iy intellektga inson bajara oladigan turli mantiqiy, ijodiy va boshqa amallarni bajarishga mo'ljallangan, muayyan algoritmlardan iborat bo'lgan dasturiy tizim [31; 23-b.], deb ta'rif beradi. Shuningdek, V.N. Sinelnikova va O.V. Revinskiyning ta'kidlashlaricha, sun'iy intellekt inson tomonidan yaratilgan va yangi axborot yoki o'z faoliyatining obyektiv ifodalangan natijalarini yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan kompyuter dasturidir [26; 18–19-b.]. M. Negnevitskiy sun'iy intellekt deganda, nafaqat oldindan belgilangan algoritim

bo'yicha harakat qilishga, balki insonga xos fikrlash funksiyalarni ham amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan dasturiy majmuani [20] tushunadi.

Shu o'rinda, nazarimizda, sun'iy intellektning huquqiy tabiatini tushunish uchun unga normativ hujjatlarda ta'rif berilgan-berilmaganligiga ham e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Garchi, milliy qonunchiligimizda yaqin vaqtlargacha "sun'iy intellekt" atamasiga normativ ta'rif berilmagan edi. 2024-yilning oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-358-son qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi. Ushbu strategiyaning 1-bobi 5-qismida, sun'iy intellekt deganda, insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o'rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui [28] tushunilishi belgilandi.

Madomiki, sun'iy intellektga berilgan ushbu va boshqa nazariy ta'riflar, umuman sun'iy intellektning mohiyatini aks ettiradi, biroq ular, nazarimizda, yuridik texnika talablariga to'liq javob bermaydi. Ular kazuistik, ortiqcha yoki haddan tashqari keng tarzda ta'riflangan bo'lib, muammoning texnik va huquqiy jihatlarini umumlashgan holda mujassamlashmagan. Shu sababli, bizningcha, sun'iy intellekt atamasiga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq: sun'iy intellekt – insonning fikrlash faoliyatiga o'xshash, eslab qolish, tahlil qilish, baholash, vazifalarga yechimlar izlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan dasturlashtirilgan tizim.

Ushbu ta'rifda ilgari surilgan belgilarning ijobiy tomoni, fikrimizcha, quyidagilarda ifodalanadi: ta'rifda berilgan «insonning fikrlash faoliyatiga o'xshash, eslab qolish, tahlil qilish, baholash, vazifalarga yechimlar izlash va mustaqil qaror qabul qilish» belgisi sun'iy intellektning o'z tabiatiga ko'ra, axborot va ma'lumotlarni muqobil holda tahlil qilib, mustaqil qaror qabul qilishi mumkinligini nazarda tutadi.

Unda, insonning fikrlashiga xos bo'lgan fazilatlar aks ettirilgan. Chunonchi, inson miyasi hujayralar va organik to'qimalardan iborat bo'lib, ular gormonlar yordamida o'zaro aloqaga kiradi va tegishli instinktlar yordamida avtomatik ravishda tafakkur qiladi va qarorlar qabul qiladi. Sun'iy intellektidagi neyrotarmoqlar ham miyadagi hujayralar va ularning faoliyatiga taqlid qilib yaratilgan, unda organik qismlar o'rniga dasturiy ta'minot va boshqa raqamli neyron mahsulotlari ishlaydi. Shuning uchun, sun'iy intellekt qonun bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan texnologik jihatdan dasturlashtirilgan matematik model va algoritmlar tizimiga asoslangan bo'ladi. Mazkur belgilarning sun'iy intellekt tushunchasida inobatga olinishi uning yuridik tabiatini tushunishga imkon beradi.

Nazarimizda, jinoyat qonunining o'zida sun'iy intellekt tushunchasiga huquqiy ta'rif berish shart emas, chunki jinoyat qonuni normalarini tartibga solishning blanket xususiyati orqali muayyan atamaning ma'nosini ochib berish uchun boshqa hujjatga havola qilish mumkin. Shuning uchun ham sun'iy intellektning huquqiy ta'rifini axborotlashtirish sohasini tartibga soluvchi maxsus qonunchilikda berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga, yuqorida ta'kidlaganimizdek, biz ko'rib chiqayotgan muammo nuqtayi nazaridan yana bir jihatga e'tibor qaratish muhim, ya'ni sun'iy intellekt qatnashgan holatlar uchun jinoiy javobgarlik asoslarini muhokama qilish. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasi 2-qismida, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi ko'rsatilgan. Ayni paytda, jinoyat tarkibining alomatlari, uning obyektiv va subyektiv belgilarini ifodalaydi. Shundan kelib chiqib, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha, avvalo, uning obyektiv belgilarini ko'rib chiqamiz.

Sun'iy intellektni jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatini baholash uchun bunday tizim

amalda bevosita yoki bilvosita jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etish imkoniyatiga ega yoki ega emasligini aniqlash muhim. Zero, amaliyotning ko'rsatishicha, sun'iy intellekt faoliyati obyektiv ravishda jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaza oladi. Masalan, haydovchisiz boshqariladigan transport vositasi tegishli qoidalarini buzgan taqdirda, yo'l harakati xavfsizligini, axborot tizimlarini buzishda dasturlashtirilgan neyron tarmog'i faoliyati axborotlashtirish, mulk, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaza oladi. Yuqorida sun'iy intellekt bilan bog'liq sodir etilgan ayrim vaziyatlarni bayon qilganmiz. Bunga yana bir misol, bu Jon Kingtonning ishlarida keltirilgan. Xususan, unda, mototsikl ishlab chiqarishda qatnashayotgan robot ishchilardan birini xavf manbai deb noto'g'ri baholab, gidravlik "qo'l"dan foydalanib, uni yondosh uskunaga bosib, o'ldirgan [11; 272-b.]. Bundan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt faoliyati ijtimoiy xavfli va jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellektni o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda baholasak, uning texnologiyasi jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir eta olishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt tomonidan yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini buzishdan tashqari, ijtimoiy xavfli oqibatlar tibbiyotda – sun'iy intellekt dasturlarining zarur darajada ishlamasligi natijasida; qishloq xo'jaligida – haydovchisiz boshqariladigan qishloq xo'jaligi texnikasi tomonidan yetkazilgan vayronagar-chiliklar tufayli; mudofaa sohasida – dushmanni yo'q qilishga mo'ljallangan harbiy qurilmalar tizimidagi xatolik sababli yuz berishi mumkin. Aytaylik, agar sun'iy intellektning rivojlangan tizimi antropomorf tanani (insonga xos sifatlarni o'zida mujassam etgan holda yaratilgan personaj) boshqaradigan bo'lsa, u holda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining har qanday moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishi mumkin.

Biz muhokama qilishimiz kerak bo'lgan navbatdagi masala jinoyat tarkibining subyektiv belgilari hisoblanadi. Texnik jihatdan sun'iy intellektning xulq-atvor algoritmi inson tomonidan modellashtiriladi va ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan algoritmlarga asoslanadi. Jismoniy shaxsdan farqli o'laroq, sun'iy intellektning ayb mazmuni texnik jihatdan o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bu esa, nafaqat huquqiy va psixologik bilimlarni, balki kibernetika va informatika sohasidagi bilimlarni ham bilish zaruratini keltirib chiqaradi. Garchi, mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqishda uni idrok etish mexanizmi tabiiy jarayonlarnikiga o'xshash tizim sifatida yaratiladi. Biroq, sun'iy intellektning idrok etish jarayoni insonnikidan tubdan farq qiladi. Sun'iy intellektda his-tuyg'u, fikrlash, anglash, o'z harakatlarini ongli ravishda idora qilish kabi belgilar bo'lmaydi. Sun'iy intellektning idrok etish va qarorlar qabul qilish imkoniyatlari mavjud ma'lumotlar tahlili va umumlashtirish natijalari asosida harakatga keltiradigan dasturlash jarayoni bilan bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun ham sun'iy intellekt texnologiyasi xatolik bilan ishlab, ijtimoiy xavfli oqibat keltirib chiqarganda uni, avvalo, inson omili bilan aloqadarligini aniqlash lozim bo'ladi. Chunki, sun'iy intellekt texnologiyasi xato ishlashining asosiy sabablardan biri undagi dasturiy ta'minotning mukammal emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bois, agar dastur yaratuvchilari sun'iy intellekt yo'l qo'yishi ehtimoli bo'lgan xatoliklarni oldindan ko'ra olsa, kelib chiqqan oqibat uchun albatta uning ishlab chiquvchilari javobgarlikka tortilishi kerak.

Darhaqiqat, hozirgi kunda sun'iy intellekt javobgarligi masalasi olimlar va mutaxassislar o'rtasida turli bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Kezi kelganda aytish kerakki, Gonkongning Hanson Robotics kompaniyasi mutaxassisi D.Xenson tomonidan ishlab chiqilgan odamsimon robotga Saudiya Arabistoni Qirolligi fuqaroligining berilishi [18; 62-b.], bu boradagi bahslarni yanada kuchaytirdi. Xususan, N.Nevyans sun'iy intellektni jinoyat huquqining mustaqil subyektiga aylantirish g'oyasini asos-

siz [21; 15-b.] deb hisoblaydi. Ammo, ushbu fikrga qarama-qarshi tarzda, F.V.Ujov "dasturiy ko'rsatmalardan qat'i nazar, xulq-atvor algoritmini tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan sun'iy intellektning javobgarligi masalasini huquqiy tartibga solish zarur", deb yozadi va fikrini davom ettirib, «o'ylab ko'rish kerak – mustaqil qarorlar qabul qila oladigan sun'iy intellektga qanday huquqlar berilishi kerak? Uni nimadan boshlash to'g'ri bo'ladi? Albatta, ishni huquqning yangi subyektini yaratishdan boshlash kerak» [27; 358-b.], deydi.

Shuningdek, J.Kopfsteinning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt uchun deaktivatsiya, qayta dasturlash yoki jinoyat subyekti maqomini berish kabi maxsus jazo turlari nazarda tutilishi kerak, bu esa huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari uchun ogohlantirish vazifasini o'taydi [12]. Xuddi shunday fikrni I.N. Mosechkin ham qo'llab-quvvatlaydi, u sun'iy intellektni "qayta tarbiyalash" "faqat uni to'liq qayta dasturlash yoki mashinani utilizatsiya qilish" orqali amalga oshirilishi mumkinligini e'tirof etadi. Uning yozishicha, jinoyat qonunida "sun'iy shaxs" atamasini mustahkamlash kerak, chunki u jismoniy va yuridik shaxs kabi al-laqachon mavjud bo'lgan subyektlar ro'yxatini samarali to'ldiradi va kelajakda "jismoniy va sun'iy shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladi", degan qoidani aks ettiradi [19; 463-b.]. Biroq, nazarimizda, sun'iy intellekt rivojlanishining hozirgi holati va uning inson faoliyatidagi rolini hisobga olsak, hozirgi kunda ushbu tizimni to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikka tortish mantiqsiz hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda Yevropa Ittifoqida haydovchisiz boshqariladigan avtomobillar bilan bog'liq qator fojiali hodisalar ko'paygandan so'ng robotlarga huquqiy maqom berish va natijada elektron shaxsni javobgarlikka tortish imkoniyati keng muhokama qilina boshlandi. Shu munosabat bilan, Yevroparlament 2017-yil 16-fevralda "Robototexnika to'g'risidagi fuqarolik huquqi me'yorlari haqida"gi [5; 10-b.] rezolyutsiyasini qabul qildi va unga muvofiq robototexnika va sun'iy intellekt bo'yicha maxsus

Yevropa agentligini tashkil etish; aqlli avtonom robotning me'yoriy ta'rifini ishlab chiqish, robotlarning barcha turlari uchun tasniflash tizimi bilan birgalikda ro'yxatga olish tizimini yaratish; xavf-xatarlarning oldini olish uchun ishlab chiqaruvchilar zimmasiga qat'iy majburiyatlar va xavfsizlik kafolatlariga oid talablarni shakllantirish; robotlardan foydalanadigan yoki ularga ehtiyoj sezadigan kompaniyalar uchun ulardan foydalanishning umumiy qoidalarini yaratish masalalari bo'yicha tegishli choralar belgilandi [22; 138-b.]. Bunda, albatta, mazkur rezolyutsiyadagi robotlarga huquqiy maqom berish masalasi alohida qiziqish uyg'otadi.

Aslida, elektron shaxsning huquqiy maqomi, jismoniy shaxsnikidan tubdan farq qiladi. Shu bois, bir guruh mualliflar sun'iy intellektni jismoniy shaxs huquqlaridan farq qiladigan alohida, o'ziga xos nostandart belgilarga ega bo'lgan shaxs sifatida qabul qilish kerak [1; 22-b; 10; 14-b; 13; 454-b], degan fikrni ilgari surishadi. Biroq, biz mavjud huquqiy voqelik doirasida hozirgi kunda sun'iy intellektga huquq subyekti sifatida va hattoki unga cheklangan maqomni ham berish mumkin emas, deb hisoblaymiz. Ya'ni, hozircha milliy jinoyat qonuni doirasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlarini belgilash orqali uni jinoyat subyekti sifatida tan olib bo'lmaydi, chunki jinoyat subyekting asosiy belgisi – uning aqli rasoligi, o'z qilmishining xususiyati va ijtimoiy xavfini anglashi va ularni boshqara olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu sababli sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida inson yoki yuridik shaxsning huquqiy maqomi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Huquqiy maqomga ega shaxs subyektiv e'tiqodlarga asoslanib fikrlashi lozim, ammo sun'iy intellekt ong yoki his-tuyg'ularga ega bo'lmadan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, dasturiy ta'minot hisob-kitoblari asosida mustaqil harakat qiladi.

Olimlarning mulohazasini davom ettirgan holda, R.Lines va F.Lusivero, sun'iy intellekt yetkazgan zarar uchun uni dasturlashtirgan shaxs yoki undan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan shaxs javobgar bo'lishi kerak [14; 202-b], deb ta'kidlashadi. Qaysidir ma'noda ushbu fikrga qisman qo'shilish mumkin. Boisi, milliy

qonunchilikda (FK 999-m.) bunday yondashuv, agar zarar sun'iy intellekt tomonidan yetkazilib, u oshiqcha xavf manbai deb baholansa, javobgarlik uning egasiga ham, oshiqcha xavf manbaini egallab olgan shaxslarga ham yuklanishi mumkinligi haqidagi qoidalar e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt javobgarligi maslasida Z.I. Xisamova, sun'iy intellektni yaratuvchisi yoki egasi ular tomonidan yaratilgan yoki foydalanilayotgan sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan har qanday zarar uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi [30; 570-b.], deb yozadi. Ammo, sun'iy intellekt ishlab chiqaruvchisi yoki egasini sun'iy intellekt yetkazgan barcha oqibatlar uchun javobgar qilish uchun ularning qilmishi va oqibatga nisbatan bo'lgan ruhiy munosabatini aniqlash hamda ularni real voqelikda javobgarlikka tortish imkoniyatini ham baholash muhim hisoblanadi. Chunki, sun'iy intellekt tizimlari bir nechta dasturiy-apparat komplekslaridan iborat bo'lgan murakkab arxitekturaga ega yoki muayyan kodlardan foydalangan holda yaratiladi. Ushbu vaziyatda sun'iy intellektning ishlab chiquvchisi va egasini aniqlash anchayin qiyin. Qonunni qo'llash amaliyotida bunday qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun sun'iy intellektni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va ishga tushirish faoliyatni standartlashtirish va sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish kerak. Ammo, taassufki hozirda amalda bunday tizim tashkiliy-huquqiy jihatdan hal qilinmagan.

Vaholanki, mustaqil qaror qilish, o'zini o'zi boshqarish va takomillashtirish hamda muayyan vaziyatlar uchun yechimlar izlash qobiliyatiga, muqobillikka ega sun'iy intellektidan foydalanish amalda ancha murakkab muam-molarni keltirib chiqaradi. Zero, bu borada P.M. Morxat to'g'ri ta'kidlaganidek, bunday vaziyatlarda asosiy qiyinchilik qilmish va uning oqibatlarini o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash bilan bog'liq bo'ladi [18; 148-b]. Darhaqiqat, jinoiy javobgarlikka tortish uchun qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash asosiy shartlardan hisoblanadi.

Tashqaridan qaraganda, bunday hollarda kelib chiqqan jinoiy oqibat uchun sun'iy intellekt

ishlab chiquvchilari va egalarini javobgarlikka tortish to'g'ridek ko'rinadi, ammo inson yaratgan mahsulotlardan boshqalar foydalanishi natijasida kelib chiqqan oqibatlar uchun uning yaratuvchisini javobgarlikka tortish bahslidir. O. Radutniy bu borada shunday yozadi, sun'iy intellekt ishlab chiqaruvchilari boshqalar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javob bermaydilar, majburiyatlarni o'z zimmalariga olmaydilar [22; 138-b.]. Holbuki, mustaqil qaror qabul qilish, o'zini o'zi boshqarishga qodir bo'lgan sun'iy intellekt boshqa hodisalar va obyektlardan sezilarli darajada farq qiladi. Shuning uchun jinoyat sifatida baholanadigan qilmishni sodir etish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilgan sun'iy intellektning javobgarligi ancha murakkab jarayondir. Axir, sun'iy intellektni jinoyat sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish masalasi unga jinoyat subyekti maqomini berish bilan bog'liq bo'ladi. Bizningcha, javobgarlik masalasida alohida ishlab chiqilgan murakkab uskunalar va qurilmalar majmuasidan iborat sun'iy intellektni loyihalashtiruvchi va ishlab chiquvchilarga to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik mas'uliyatini yuklash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Chunki, sun'iy intellekt javobgarligining yakuniy yechimi ko'p jihatdan uni qo'llashda va unga yuklatilgan vazifalarga bog'liq bo'ladi.

Shu jihatdan ham bugungi kunda nazariyada sun'iy intellekt yordamida sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilashning o'ziga xos modellari ishlab chiqilgan. Xususan, bu borada professor G. Xallevi tomonidan uchta model ishlab chiqilgan [8; 192-b.]. Uning nazariyasi D.Gunkel, M.Sherer, M.Melman, D.V.Berg kabi IT-texnologiyalar va kiberhuquq sohasidagi ishlanmalar bilan shug'ullanuvchi amerikalik olimlar tomonidan e'tirof etilgan [7; 160-b; 24; 368-b; 16]. Ushbu modellar quyidagilardan iborat.

Birinchi model, "The Perpetration-by-Another" (boshqa shaxs orqali sodir etish) modeli sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida tan olmaydi va undan qilmishni sodir etish uchun bir vaqtning o'zida "mens rea" va "actus reus" mavjudligini talab qilmaydi. Bunda sun'iy intellekt foydalanuvchisi aybsiz shaxs (innocent

agent yoki semi-innocent agent) sifatida baholandi. Bunday holda, sun'iy intellekt harakatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan ikkita subyekt mavjud bo'ladi. Birinchisi, jinoyat sodir etish maqsadida maxsus dasturiy ta'minotni ishlab chiqqan dasturchi, ikkinchisi, mavjud sun'iy intellekt imkoniyatlaridan o'zining qonunga xilof maqsadlari uchun foylangan foydalanuvchi. Har ikkala holatda ham qilmish bevosita sun'iy intellekt yordamida amalga oshiriladi.

Ikkinchi model, "The Natural-Probable-Consequence Liability" (tabiiy ehtimoliy oqibat) modeli dasturchi (foydalanuvchi)ning qilmishida "mens rea" ham "actus reus" ham mavjudligini nazarda tutmaydi. Bunday vaziyat sun'iy intellekt tizimining odatiy harakatlaridan jinoiy qilmish sodir etish uchun noto'g'ri foydalanish mumkin bo'lganda yuzaga keladi [32; 267–273-b.]. Bunda subyekt jinoyat yoki uning oqibatlarini oldindan ko'ra bilmaydi, faqat u sun'iy intellektning mavjud imkoniyatlarini baholay oladi. Bu dasturchi (foydalanuvchi)ning beparvoligi bo'lib, uning mavjudligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Biroq, ushbu model boshqa holatni ham nazarda tutadi. Agar robot ma'lum bir jinoyatni sodir etish uchun dasturlashtirilgan bo'lsa, lekin uni sodir etish jarayonida va ehtimol, uni oxiriga yetkazishda belgilangan rejadani chetga chiqib, boshqa jinoyatni sodir etsa, unda dasturchi qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ham (dastlab rejalashtirilgan), u rejalashtirmagan, lekin robot tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun ham javobgar bo'ladi [25; 167-b.].

Uchinchi model, "The Direct Liability" (bevosita javobgarlik) modeli butunlay boshqacha xususiyatga ega. U sun'iy intellektni keyinchalik jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan mustaqil jinoyat subyekti sifatida ko'rib chiqadi. Modelning nomlanishidan ko'rinib turibdiki, u sun'iy intellektning bevosita javobgarligini uning xatti-harakatlariga dasturchi (foydalanuvchi)ning oqibatlarni keltirib chiqarish niyati (xohishi) bilan bog'lamaydi [6; 152-b.; 9; 204-b.]. Ammo bunday modelni hayotga tatbiq etish uchun sun'iy subyektga huquq subyekti

maqomini berish to'g'risida qonuniy qaror qabul qilish, shuningdek, sun'iy intellekt harakatlari "mens rea" va "actus reus" talablariga aniq muvofiqligini aniqlash talab etiladi [15; 188-b.].

Ko'rib turganimizdek, birinchi ikki model sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida tan olmaydi va uni jinoyatning quroli yoki vositasi hisoblab javobgarlik masalasini hal qiladi, uchinchi model esa, kelajakda sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida maqomini belgilab, uni javobgarlikka tortishni nazarda tutadi.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, nazarimizda sun'iy intellektdan foydalangan holda yoki u ishtirok etgan vaziyatlarda qilmishni kvalifikatsiya qilish va javobgarlik masalalarini hal qilishda quyidagi qoidalarni nazarda tutish maqsadga muvofiq:

1. Sun'iy intellekt ishlab chiqaruvchisi (yaratuvchisi). Sun'iy intellektni yaratish, avvalo, uning ishlashi va o'z-o'zini boshqarishga oid dasturlash jarayonlariga cheklovlar kiritishni, mumkin bo'lgan xatoliklarni va iste'molchi uchun xavf-xatarlarni bartaraf etish lozimligini nazarda tutadi. Shu sababli, sun'iy intellektning ushbu tarkibiy qismlari uchun mas'ul shaxslar mazkur jarayonlarga bila turib yoki vazifalariga loqayd yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lishi oqibatida yo'l qo'ysa, ular jinoyat subyekti sifatida tan olinishi mumkin. Masalan, agar haydovchisiz boshqariladigan avtomobil tomonidan yo'l harakati qoidalari buzilishi odam o'limiga olib kelgan bo'lsa va bunga sun'iy intellekt dasturiy ta'minotning nomukammalligi sabab bo'lgan bo'lsa va uning yaratuvchisi bunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'ra olganligi aniqlansa, javobgarlik sun'iy intellekt ishlab chiquvchisi zimmasiga yuklanishi kerak. Bu jarayonda qilmishga jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidalaridan kelib chiqqan holda huquqiy baho berish talab etiladi. Chunki, Jinoyat kodeksining 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti maxsus subyekt bo'lib, unga ko'ra 16 yoshga to'lgan transport vositasini boshqaruvchisi mazkur jinoyatning subyekti hisoblanganligi sababli bunday vaziyatda sun'iy intellekt ishlab chiqaruvchisining qilmishini ushbu modda bilan

javobgar qilib bo'lmaydi. Bunday qilmish uchun sun'iy intellekt ishlab chiqaruvchisi Jinoyat kodeksining 186-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi. Agar shaxsning aybi jinoyat oqibatiga nisbatan qasd shaklida ifodalansa, bunday qilmishni sun'iy intellektdan foydalanishni jinoyat sodir etish quroli yoki vositasi sifatida baholab, kelib chiqqan oqibatga qarab, hayot yoki sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan kvalifikatsiya qilish kerak bo'ladi.

2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqaruvchisi yoki o'tkazuvchisi. Ushbu shaxslar ham, xo'jalik faoliyatining boshqa barcha sohalarida bo'lgani kabi, tovarlar, ishlar va xizmatlarning zarur sifatini ta'minlashlari kerak. Tovar ishlab chiqaruvchisi yoki o'tkazuvchisi har doim ham robototexnika va dasturlash sohasida yetarli bilimga ega bo'lmashliklari mumkin, shuning uchun ular sun'iy intellektning xavfsiz ishlashi uchun barcha zarur choralarni ko'rgan bo'lsa, ularning qilmishida ayb mavjud bo'lmaydi. Ammo, ishlab chiqaruvchi yoki o'tkazuvchi mahsulotning xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida oldindan bilgan bo'lsa, nuqsonli sun'iy intellektga ega mahsulotni ishlab chiqargan yoki o'tkazgan (sotgan) shaxslar javobgar bo'lishlari kerak. Bunday qilmishni ham Jinoyat kodeksining 186-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin. Agar, ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi sun'iy intellekt texnologiyasini ishlab chiquvchisi (yaratuvchisi)ning ruxsatisiz yoki uning ixtiyoriga zid dasturiy ta'minotga tuzatishlar kiritganlik yoki tashqaridan aralashganlik holatlari aniqlangan taqdirda, bunday qilmishni Jinoyat kodeksining 278⁴-moddasi yoki boshqa tegishli moddalar bilan kvalifikatsiya qilish kerak bo'ladi.

3. Sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanuvchi. Ushbu subyektni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi sun'iy intellekt texnologiyasining qanchalik muqobil ekanligi va faoliyatini foydalanuvchi tomonidan nazorat qilish imkoniyatlari mavjud yoki mavjud emasligi bilan bog'liq holda hal etiladi. Chunki, sun'iy intellekt texnologiyasining ishlashi bevosita foydalanuvchisining faoliyatga bog'liq bo'lsa yoki uning

nazorati ostida amalga oshirilsa, oqibatlar uchun sun'iy intellekt emas, balki uning foydalanuvchisi aybdor bo'ladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyasi ishlashi to'liq mustaqilligi tufayli unda foydalanuvchining roli bo'lmagan taqdirda, uning texnologik xususiyatlari hisobga olingan holda javobgarlik masalasi hal qilinadi. Agar sun'iy intellekt bilan jihozlangan mahsulotning foydalanuvchisi undan foydalanish shartlarini buzmagani bo'lsa va kelib chiqqan oqibatlar da aybi aniqlanmasa, sun'iy intellekt foydalanuvchisi javobgarlikka tortilmasligi kerak. Chunki, bunday qilmish aybsiz holda zarar yetkazilganligi sababli shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Ammo, sun'iy intellekt bilan jihozlangan mahsulotdan foydalanish shartlari buzilgan ayrim hollarda foydalanuvchining qilmishi jinoiy deb baholanishi mumkin. Masalan, haydovchisiz boshqariladigan transport vositasi salonida bo'lgan shaxs bezorilik qilib, harakatlanayotgan transport vositasining eshiklarini ochsa, dera-zadan boshini chiqarsa yoki boshqa noto'g'ri harakatlarni sodir etsa, transport vositasi xavf deb hisoblab, boshqaruvni birdan to'xtatishi yoki rul mexanizmini blokirovka qilishi mumkin. Natijada, dasturiy ta'minot yo'lovchining xavfsizligini ta'minlashga harakat qilib yoki uning harakatlarni to'g'ri baholay olmay, boshqa shaxslarga zarar yetkazishi mumkin. Bunday holatda transport vositasidan foydalanuvchi shaxs qilmishini Jinoyat kodeksi 266-moddasi (tegishli oqibatlar mavjud bo'lganda) bilan kvalifikatsiya qilish kerak bo'ladi. Agar shaxs transport vositasini boshqarishda ishtirok etmay yo'lovchi sifatida harakatlangan (bunda shaxs transport vositasini boshqarmaydi) taqdirda, bunday qilmish Jinoyat kodeksining 268-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Garchi, sun'iy intellekt tizimlaridan noto'g'ri foydalanish, uni ataylab noto'g'ri boshqarish nafaqat transport sohasida, balki har qanday sohada ham sodir etilishi mumkinligini inkor etmaydi. Bularning barchasi foydalanuvchi tomonidan sun'iy intellekt mahsulotiga nisbatan ma'lum majburiyatlar mavjudligini va bunday majburiyatlar buzilgan taqdirda javobgarlikka tortish mumkinligini nazarda tutadi.

4. Boshqa shaxslar. Aytish kerakki, sun'iy intellekt murakkab ishlanma bo'lgani bilan u baribir kompyuter dasturi hisoblanadi va u insonlar tomonidan yaratiladi. Bu, yuqorida ta'kidlaganimizdek, uning imkoniyatlaridan g'arazli yoki boshqa past niyatlarda foydalanish mumkinligini inkor etmaydi va so'nggi paytlarda bu yo'nalishda sodir etilayotgan jinoyatlarning turi rivojlanib bormoqda. Xususan, sun'iy intellekt bilan jihozlangan mahsulotni modifikatsiyalashtirish yoki zarar keltiruvchi dasturlarni ishlab chiqish orqali jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish holatlari uchramoqda. Masalan, bunga harbiy robotlar, haydovchisiz boshqariladigan transport vositalari, avtomatik birja savdosi qurilmalari va shu kabilarning kompyuter algoritmlarga o'zgartirish kiritish holatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayni paytda mamlakatimizda bunday qilmishlar uchun Jinoyat kodeksining XX¹ bobida (Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar) javobgarlik nazarda tutilgan. Zero, Jinoyat kodeksida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi alohida normalarning mavjudligi, sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan qilmishlar uchun hayotga qarshi jinoyatlar, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar, o'zgalar mulkini talon-toroj qilish, boshqaruv tartibga qarshi jinoyatlar va boshqa holatlar uchun javobgarlikni belgilovchi normalari bo'yicha javobgarlikka tortish imkoniyatini istisno etmaydi. Shu bois, agar bunday qilmishlar jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan turli ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazib, mustaqil oqibatlarni keltirib chiqargan taqdirda, ularni jinoyatlar majmui tariqasida huquqiy baholash kerak bo'ladi. Masalan, odam o'ldirish maqsadida haydovchisiz boshqariladigan transport vositasi axborot tizimini buzib kirish orqali yo'lovchining tezlikni oshirib yuborishiga, to'qnashuvga va o'limiga olib kelgan shaxsning harakatlari, Jinoyat kodeksining 278⁴ va 97-moddalari majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Shuningdek, fuqarolar yoki tashkilotlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'lari talon-

torojligi axborot tizimi yoki axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilganligi fakti Jinoyat kodeksining 168, 169-moddalari kvalifikatsiya qilinishi mumkin hamda jinoyat qonuni-ning bir qator normalarida telekommunikatsiya yoki axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan boshqa qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan (JK 103-m., 2-q. "g" b., 103¹-m., 2-q., "v" b., 130–130¹-m., 139-m., 2-q., 140-m., 2-q., 141²–141³-m., 158-m., 3-q., 168-m., 3-q., "g" b., 3-q., 169-m. "b" b., 188¹-m., 244-m., 2-q. "b" b., 244¹-m., 3-q., "g" b., 244⁶-m., 251¹-m., 273-m., 3-q., "d" b., 274-m., 278-m., 4-q.). Biroq, yaratilayotgan sun'iy intellekt tizimlari har doim ham axborot tizimlariga zarar keltiruvchi yoki telekommunikatsiya yoxud axborot texnologiyalariga oid xususiyatlarni o'zida ifoda etmasligi mumkin. Shuning uchun ham, nazarimizda, kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida jinoyat sodir etishga oid jinoiy-huquqiy belgilarni jinoyat qonuni normalariga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Sun'iy intellekt. Yuqorida ta'kidlangan holatlarda sun'iy intellektdan foydalanishda har doim jismoniy shaxs ishtirok etadi va kelib chiqqan oqibatlar u yoki bu darajada ushbu shaxsning qilmishi bilan sababiy bog'liq bo'ladi. Sun'iy intellekt, ta'kidlaganimizdek, o'zining texnologik xususiyatlariga ko'ra, muqobil tarzda tashqi ta'sirga nisbatan o'zi mustaqil holda qarorlar qabul qilishga qodir bo'ladi. Bu esa, sun'iy intellekt ishlab chiqaruvchisi tomonidan ehtimolli xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha zarur choralarini ko'rgan, foydalanuvchi undan foydalanish shartlariga qat'iy rioya qilgan va uning faoliyatiga uchinchi shaxslarning tashqaridan aralashuvi bo'lmagan vaziyatlarni istisno etmaydi. Shu sababli har doim ham yuz bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar sun'iy intellekt ishlab chiquvchisi, foydalanuvchisi yoki boshqa uchinchi shaxslarning qilmishi bilan aloqador bo'lmazligi mumkin. Bunday holda tabiiy savol tug'iladi, bunda kelib chiqqan oqibatlar uchun kim javob beradi? Ammo, amaldagi jinoyat qonuniga muvofiq, bunda sun'iy intellekt texnologiyasini javobgarlikka tortib bo'lmaydi, chunki sun'iy intellekt jinoyat subyekti belgilariga ega

bo'lmaydi. Shu sababli mantiqan bu kabi holatlar Jinoyat kodeksining 24-moddasiga asosan aybsiz holda zarar yetkazish deb baholanishi mumkin. Biroq, nazarimizda, sun'iy intellektni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalaning yechimi uning rivojlanishiga qarab o'zgarishi mumkin. Hozirgi vaqtda esa, sun'iy intellekt tizimiga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llab bo'lmaydi. Kelib chiqqan xavfli oqibatlarni bartaraf qilish yoki buzilgan huquqlarni tiklash masalasiga kelsak, bunday holatlar uchun boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablarni qo'llash istisno etilmaydi. Masalan, fuqarolik qonunchiligida zarar yetkazgan shaxsning aybi bo'lmagan taqdirda ham zararni to'lash nazarda tutiladi (FK 985-m., 4-q.).

Demak, muxtasar aytganda, sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq qilmishlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni amalga oshirish muammolarini o'rganish quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1) sun'iy intellekt deganda, insonning fikrlash faoliyatiga o'xshash, eslab qolish, tahlil qilish, baholash, vazifalarga yechimlar izlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan dasturlashtirilgan tizim tushuniladi. Ayni paytda, jinoyat qonunida sun'iy intellekt atamasiga huquqiy ma'no berilishi shart bo'lmaydi, chunki norma tuzilishining blanket xususiyati orqali muayyan atamaning ma'nosini ochib berish uchun boshqa hujjatga havola qilish mumkin. Shuning uchun ham sun'iy intellektning huquqiy ta'rifini axborotlashtirish sohasini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida berish maqsadga muvofiq;

2) jinoyat qonunchiligi sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda kechikmoqda, ayni paytda sun'iy intellekt ishtirokida bir nechta ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilmoqda;

3) sun'iy intellekt faoliyati obyektiv ravishda ijtimoiy xavf tug'dirishi va jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi mumkin;

4) hozirgi vaqtda sun'iy intellektning ayb mazmuni inson faoliyatining aqliy va irodaviy belgilari mazmunidan yiroq, biroq u ko'proq

darajada beparvolik bilan tavsiflanadi, shu bilan birga, kelajakda o'xshashlik darajasi oshishi mumkin va bu holat sun'iy ong xatti-harakatlarida aybning subyektiv alomatlari mavjudligi haqida gapirish imkonini beradi;

5) sun'iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda sodir etilishi mumkin bo'lgan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan jinoyat subyektlari qatoriga sun'iy intellekt texnologiyasini ishlab chiquvchisi (yaratuvchisi), sun'iy intellekt texnologiyasini ishlab chiqaruvchisi yoki o'tkazuvchisi, sun'iy intellekt texnologiyasining foydalanuvchisi va boshqa shaxslarni kiritish mumkin;

6) sun'iy intellekt shaxs sifatida o'zini o'zi anglashiga erishgan va qonun tomonidan jinoyat subyekti deb tan olingan taqdirdagina jinoyatning to'laqonli subyekti sifatida javobgarlikka tortish mumkin, shu bois hozircha sun'iy intellekt jinoiy javobgarlikka tortib bo'lmaydi. Sun'iy intellekt jinoyat subyekti sifatida tan olish nafaqat batafsil tadqiqotni, balki muayyan ehtiyotkorlikni ham talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Sun'iy intellekt jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish uchun muqarrar ravishda uning huquq va majburiyatlarini normativ jihatdan belgilash lozim. Bu, o'z navbatida, nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar bazasini tubdan qayta qurishni, balki inson tafakkuri vektorini, huquqiy madaniyatni rivojlantirish yo'nalishini ham o'zgartirishni talab etadi. Shu bois jamiyat hozirdanoq ehtimoliy xatarlarni bashorat qilishi, sun'iy intellekt ishlab chiqish, ishlab chiqarish va undan foydalanishda javobgarlik, shu jumladan jinoiy javobgarlik konsepsiyasini ishlab chiqishga e'tibor qaratishi kerak. Bunday huquqiy institut mutlaqo yangicha yondashuvni talab qiladi. Ushbu institut doirasida sun'iy intellektning texnik va boshqa xususiyatlari simbioziga asoslangan subyektni an'anaviy tushunishdan farqli ravishda, shuningdek, deaktivatsiya, qayta dasturlash yoki unga jinoyat subyekti maqomini berish kabi muqobil javobgarlik turlarini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi;

7) sun'iy intellektdan mustaqil qarorlar qabul qilishning mumkin bo'lgan xavflari va

salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida bunday oqibatlarni chuqur tahlil qilish, ishga tushiriladigan sun'iy intellektni majburiy ro'y-xatdan o'tkazish mexanizmlarni ishlab chiqish lozim. Shuningdek, robot mexanizmiga favqulodda vaziyatlarda barcha jarayonlarni darhol to'xtatish uchun maxsus dasturiy ta'minotni integratsiya qilish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq. Shu sababli ham mazkur jarayon to'liq huquqiy tartibga solinishi kerak. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi"da xavfsizlik nuqtayi nazaridan sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha etika qoidalarini ishlab chiqish va ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash hamda ularni muhofaza qilish va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish masalalari ko'zda tutilgan;

8) sun'iy intellekt mustaqil ravishda jinoyatning obyektiv tomonini amalga oshirishi va har qanday ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi mumkinligi sababli, Jinoyat kodeksining 56-moddasini "sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etish"ni jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutish hamda sun'iy intellekt tizimlaridan g'arazli va boshqa past niyatlarda qasddan ishlab chiqish, ishlab chiqarish va foydalanganlik uchun quyidagi mazmundagi norma bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

278¹⁰-modda. G'arazli yoki boshqa past niyatlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o'tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish.

G'arazli yoki boshqa past niyatlarda yoki jinoyatni yashirish maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o'tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish – bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:	O'sha harakatlar:
a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;	a) odam o'limiga;
b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;	b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa;
v) xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, —	v) boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, —
uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.	besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Asaro P.M. Robots and Responsibility from a Legal Perspective//Proceedings of the IEEE. – 2007. – Vol. 4, iss. 14. – P. 20–24.
2. Bostrom N. Strategic Implications of Openness in AI Development. Global Police. – 2017. – Vol. 8, iss. 2. – P. 135–148.
3. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford: Oxford Univ. Press, 2014. – 390 p.
4. Бозаров С.С. Сунъий интеллект томонидан етказилган зарар учун жавобгарлик масалалари // <https://cdn.uza.uz/2022/07/05/05/02/03h8FqhXBuvCIYHXM6MJBBeh509lkZFPo.pdf>
5. Delvaux M. Draft Report with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics. – European Parliament, 2016. – 22 p.
6. Freitas P. Criminal Liability of Autonomous Agents: From the Unthinkable to the Plausible / P. Freitas, F.A. de Andrade, P.J. Novais // Ai Approaches to the Complexity of Legal Systems. – Berlin: Springer 2014. – P. 145–156.
7. Gunkel D.J. The machine question: Critical Perspectives on AI, Robots, and Ethics. – Cambridge: MIT Press, 2012. – 270 p.
8. Hallevy G. The Criminal Liability of Artificial Intelligence Entities – from Science Fiction to Legal Social Control // Akron Intellectual Property Journal. – 2010. – Vol. 4, iss. 2. – P. 171–201.
9. Hallevy G. When Robots Kill: Artificial Intelligence Under Criminal Law. – Boston, 2013. – 272 p.
10. Hood K. Artificial Intelligence and the Legal Profession // Horizon Scanning. – 2018. – 20 p.
11. Kingston John K. C. 2016. "Artificial Intelligence and Legal Liability", Research and Development in Intelligent Systems XXXIII: Incorporating Applications and Innovations in Intelligent Systems XXIV, ed. by Max Bramer, Miltos Petridis. – Cambridge: Springer. – P. 269–279.
12. Kopfstein J. Should Robots Be Punished For Committing Crimes?. – URL: <https://www.vocativ.com/417732/robots-punished-committing-crimes>.
13. Курсова О.А. Юридические фикции современного российского права: сущность, виды, проблемы действия // Проблемы юридической техники: сб. ст. / Под ред. В.М. Баранова. – Нижний Новгород, 2000. – С. 450–459.
14. Leenes R. Laws on Robots, Laws by Robots, Laws in Robots: Regulating Robot Behaviour by Design // Law, Innovation and Technology. – 2014. – Vol. 6, iss. 2. – P. 194–222.
15. Levy D. When robots do wrong // https://share.pdfonline.com/87cad18d73324e8fb2eaae1cddb60f77/Kathmandu_final_text_October31st.htm. Hallevy G. Liability for Crimes Involving Artificial Intelligence Systems. – Dordrecht: Springer, 2015. – 262 p.
16. Mehlman M. Robot Law // Case Legal Studies Research Paper. – 2017. – URL: <https://ssrn.com/abstract=2908488>.
17. Matchanov Sh. K. Jinoyat ishini tergov qilishda sun'iy intellektdan foydalanish masalalari // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2023. – № 9. – Б. 1–5.
18. Морхат П.М. Искусственный интеллект: правовой взгляд. – М.: Буки Веди, 2017. – 257 с.
19. Мосечкин И.Н. Искусственный интеллект и уголовная ответственность: проблемы становления нового вида субъекта преступления // Вестник Санкт-Петербургского университета. – 2019. – Право 3. – С. 461–476.
20. Negnevitsky M. Artificial intelligence: a guide to intelligent systems. Pearson education, 2005. URL: https://books.google.ru/books?hl=ru&lr=&id=1BxYQnrfv9MC&oi=fnd&pg=PR11&dq=artificial+intelligence+%&ots=GWevZKTmUA&sig=ChXKFLimIDD0alwcZW_NHDCY3Y&redir_esc=y#v=onepage&q=artificial%20intelligence&f=false.
21. Nevejans N. European Civil Law Rules in Robotics: Study. – European Union, 2016. – 34 p.
22. Radutniy O.E. Criminal Liability of the Artificial Intelligence // Problems of Legality. – 2017. – Iss. 138. – P. 132–141.

23. Sandberg A. Space Races: Settling the Universe Fast. Technical Report-2018. – University of Oxford, 2018. – URL: <https://www.fhi.ox.ac.uk/wp-content/uploads/space-races-settling.pdf>.
24. Scherer M.U. Regulating Artificial Intelligence Systems: Risks, Challenges, Competencies, and Strategies // Harvard Journal of Law & Technology. – 2015. – Vol. 29, – № 2. – P. 353–400.
25. Solaiman S. Legal personality of robots, corporations, idols and chimpanzees: a quest for legitimacy // Artificial Intelligence and Law. – 2017. – Vol. 25. – № 2. – P. 155–179.
26. Синельникова В. Н., Ревинский О. В. Права на результаты искусственного интеллекта // Копирайт. Вестник Российской академии интеллектуальной собственности. – 2017. – № 4. – С. 17–27.
27. Ужов Ф.В. Искусственный интеллект как субъект права // Пробелы в российском законодательстве. – 2017. – № 3. – С. 357–360.
28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-358-son qaror // <https://lex.uz/docs/7158604>
29. O'rinkulov O.N., Xudoyberdiyev R.F. O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2021. – №1 (48). – B. 158-164.
30. Хусамова З.И. Уголовная ответственность и искусственный интеллект: теоретические и прикладные аспекты // Всероссийский криминологический журнал. – 2019. – Т. 13, – № 4. – С. 564–574.
31. Шамсутдинов Б. Jinoyat protsessida sun'iy intellekt // Odillik mezon. – 2020. – № 9. – Б. 23.
32. Weng Y.H. Towards the Human-Robot Co-Existence Society: On Safety Intelligence for Next Generation Robots/Y.H. Weng, C.H.Chen, C.T.Sun//International Journal of Social Robotics.– 2009. – № 1. – P. 267-282

